HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

TEHRONNING TURLI HUDUDLARIDAGI TOPONIMLARNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Safarmatova Orzigul Baxtiyor qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
2-bosqich magistranti
Tel: +998974332802
e-mail: orzigulsafar@gmail.com
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23233325

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Tehron shahrining turli hududlaridagi toponimik birliklarning mintaqaviy xususiyatlari va ularning shakllanish omillari qiyosiy-tarixiy va struktur-semantik tahlil usullari yordamida o'rganilgan. Tadqiqotda Tehron toponimik makoni shartli ravishda to'rt qismga — tarixiy markaz va janubiy hududlar, shimoliy hududlar, g'arbiy hamda sharqiy hududlarga bo'lib o'rganilgan. Har bir hududga xos nomlash modellari, xususan, markazda oykonim va darvoza nomlari, shimolda landshaft, agrar va shaxs nomlari bilan bog'liq -iya hamda -ak qo'shimchali formalar, g'arb va sharqda esa zamonaviy rejalashtirilgan turar-joy nomlari hamda tarixiy xotiraga ishora qiluvchi tendensiyalar ochib berilgan. Shuningdek, maqolada hodonimlar (ko'cha nomlari) va antroponimik asosli toponimlarning siyosiy-ideologik hamda madaniy-tarixiy qatlamlari tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: Tehron, toponimika, toponimik makon, mintaqaviy xususiyat, oykonim, hodonim, izofali konstruksiya, lingvokulturologiya.

АННОТАЦИЯ: В данной статье методом сравнительно-исторического и структурно-семантического анализа исследуются региональные особенности топонимических единиц различных районов города Тегерана и факторы их формирования. Топонимическое пространство Тегерана условно разделено на четыре зоны: исторический центр и южные районы, северные районы, западные и восточные районы. Выявлены специфические модели наименований для каждого района: ойконимы и названия городских ворот в центре, формы с суффиксами -ия и -ак, отражающие ландшафтные, аграрные и антропонимические особенности на севере, а также современные проектные названия и тенденции обращения к исторической памяти на западе и востоке. Кроме того, в статье проанализированы годонимы (названия улиц) и топонимы на антропонимической основе в контексте их социально-политических и культурно-исторических пластов.
Ключевые слова: Тегеран, топонимика, топонимическое пространство, региональные особенности, ойконим, годоним, изафетная конструкция, лингвокультурология.

ABSTRACT: This article examines the regional features of toponymic units across different districts of Tehran and the factors influencing their formation using comparative-historical and structural-semantic analysis methods. The toponymic space of Tehran is conditionally divided into four zones: the historical center and southern districts, northern districts, and western and eastern districts. The study highlights specific naming models characteristic of each zone, such as oikonyms

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

and historical gate names in the center, landscape-, agrarian-, and personal-name-based forms with -iyeh and -ak suffixes in the north, and modern planned residential names reflecting historical memory references in the west and east. Furthermore, the article analyzes hodonyms (street names) and anthroponym-based toponyms within their socio-political and cultural-historical layers.

Keywords: Tehran, toponymy, toponymic space, regional features, oikonym, hodonym, izafet construction, linguoculturology.

Toponimlar — muayyan hududning tarixi, tili va madaniy tajribasini o'zida saqlovchi til birliklaridir. Ular nafaqat geografik obyektni atash vositasi, balki xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy tuzumi va tarixiy xotirasini ifodalovchi lingvokulturologik axborot manbayi hamdir [7; 8; 12]. Yirik shaharlarda toponimik makon bir paytda va bir xil tamoyil asosida shakllanmaydi: shaharning turli qismlari turli tarixiy davrlarda, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida o'sib borgani sababli, nomlash an'analari ham hududdan hududga farqlanadi. Tehron bu jihatdan alohida tadqiqiy qiziqish uyg'otadi. Qadimiy Rey (ری) shahri yaqinidagi nisbatan kichik aholi punktidan Qojarlar sulolasi poytaxtiga, XX asrda esa millionlik megapolisga aylangan bu shahar o'z ichida bir necha toponimik qatlamni jamlagan [2; 3; 4]. Maqolaning maqsadi Tehronning tarixiy markazi, shimoliy, g'arbiy va sharqiy hududlaridagi toponimlarni qiyosiy o'rganib, har bir hududga xos nomlash modellarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va struktur-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tehron nomining kelib chiqishi haqida yagona fikr mavjud emas. "Eron shaharlarining nomlanish tarixi" kitobida va Abdulaziz Javohir Kalomning "Tehron tarixi" asarida shahar nomining kelib chiqishi yuzasidan bir nechta qiziqarli ilmiy va tarixiy farazlar keltirilgan. Ushbu qarashga ko‘ra, Tehron so‘zi "issiq joy" ma'nosini anglatadi. Bu nom "sovuq joy" ma'nosini bildiruvchi Shemiron (Shimol) toponimiga zid ravishda, ular orasidagi iqlimiy farqqa ko‘ra kelib chiqqan. Kitobda shuningdek, Tehron toponimi Tohiriylar sulolasi nomi bilan bog‘lanadi. Dastlabki davrlarda shahar "Tohiron" deb atalgan. Bu nom tarixda Tohiriylar sulolasiga mansub bir qabila yoki urug‘ vakillarining mazkur hududda istiqomat qilgani bilan izohlanadi. Shuningdek, yana bir qarash bor, tarixiy manbalarda qaroqchilar hamda tashqi dushmanlar xavfidan saqlanish maqsadida qishloq aholisi o‘z uylarini yer ostida qurgani aytiladi. Ko‘chalar va o‘tish yo‘laklari devor sathidan pastroqda joylashgani uchun bu hudud "teh" (tag, ost, pastki qism) va "ron" (joy, makon) so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lib, umumiy ma'noda "yerning tagi" yoki "yer osti" degan ma'noni anglatgan. Yana bir keng tarqalgan farazga ko‘ra, o‘tmishda bu hududda "tag" (yoki to‘g‘) daraxtlari va o‘simliklari ko‘p bo‘lgan. Shu sababli makon "tag daraxtlari o‘sadigan joy" yoki "tog‘iston" ma'nosini beruvchi Tehron nomi bilan atala boshlagan [1; 2; 13]. Arab geograflarining asarlarida Tehron Rey atrofidagi qishloq sifatida eslatiladi [5]. Rey nomi esa qadimgi fors tilidagi Raga shakliga borib taqaladi. Rey mo'g'ullar istilosidan keyin inqirozga yuz tutgach, Tehronning ahamiyati ortib bordi, Qojarlar davrida esa shahar poytaxt maqomini oldi. XIX asr o'rtalarida Nosiriddin Shoh davrida shahar hududi kengaytirilib, yangi darvozalar va mudofaa devori bunyod etildi [2; 6]. Aynan shu davrdan boshlab shaharning tarixiy yadrosi va uning atrofidagi yangi mahallalar o'rtasida toponimik farq shakllana boshladi. XX asrda, ayniqsa Pahlaviylar davrida, shahar shimol va g'arb tomon keskin kengayib, rejalashtirilgan turar-joy massivlari vujudga keldi; 1979-yildan keyin esa ko'cha va maydon nomlarida ideologik o'zgarishlar yuz berdi [3; 4]. Natijada Tehron toponimik makonini shartli ravishda to'rt hududga ajratish mumkin: 1) markaz va janubiy hududlar; 2) shimoliy hududlar; 3)

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

g'arbiy hududlar; 4) sharqiy hududlar.Markaz va janubiy hududlar toponimlari. Tehronning eski qismi toponimlari bir necha o'ziga xos xususiyat bilan ajralib turadi. Birinchidan, bu yerda oykonimlar (mahalla nomlari) yetakchi o'rin tutadi. Eski Tehronning an'anaviy mahallalari sifatida odatda Udlajon (عودلاجان), Sangelaj (سنگلج), Chole Maydon (چاله میدان) va Bozor (بازار) mahallalari sanaladi [2]. Bu nomlar kichik mahalliy jamoa hayoti bilan bog'liq bo'lib, ko'p hollarda joyning relyef belgisi, masalan, «chole» — chuqurlik, o'ra yoki jamoaviy faoliyat markazi (maydon, bozor) asosida shakllangan. Ikkinchidan, markazda darvoza nomlari — Darvoza-ye Shemiron (دروازه شمیران), Darvoza-ye Dowlat (دروازه دولت), Darvoza-ye Qazvin (دروازه قزوین) kabi «yo'nalish va manzil» modeliga asoslanadi, nom shahardan chiqadigan yo'lning qayerga olib borishini ko'rsatadi. Bunday nomlar shaharning o'tmishdagi mudofaa tuzilmasini toponimik jihatdan saqlab qolgan. Ko'pchiligi devor buzilgandan so'ng ham maydon va mavze nomi sifatida yashab kelmoqda. Ularning ko'pi izofali konstruksiya (Darvoza-ye + joy nomi) shaklida tuzilgan bo'lib, bu fors tilidagi toponim yasalishining muhim modelidir. Uchinchidan, janubiy hududlarda Shahr-e Rey (شهر ری) nomining saqlanishi Tehron toponimiyasidagi eng qadimgi qatlamlardan birini ko'rsatadi va shahar tarixining Tehrondan oldingi bosqichini eslatib turadi.

Shimoliy hududlar toponimlari. Shimoliy hududlar Tehron toponimiyasida alohida o'rin tutadi. Bu yerda Tajrish (تجریش), Darband (دربند), Niyovaron (نیاوران), Elohiya (الهیه), Zafaroniya (زعفرانیه), Farmoniya (فرمانیه), Velenjak (ولنجک), Qulhak (قلهک), Jamoron (جماران) kabi nomlar uchraydi. Tarixan bu joylar odatda Tehron aholisining, ayniqsa yuqori tabaqaning, yoz oylarida salqin tog' etagiga ko'chib chiqadigan bog' va yozgi qarorgohlari bo'lgan, keyinchalik esa kengayib borgan shaharga qo'shilib ketgan. Nomlash modellari jihatidan shimol uchun uch xil tamoyil xarakterli. Birinchisi, landshaft belgisi. Darband nomi dovon, tor yo'lakni bildiradi. Ikkinchisi, agrar va botanik asos. Zafaroniya nomi odatda zafaron ekini bilan bog'lanadi. Uchinchisi, shaxs nomi. Farmoniya nomi mulk egasi bo'lgan Farmonfarmo (فرمانفرما) bilan bog'lanadi. Shuningdek, arabcha kelib chiqishli -iya (-iyeh) qo'shimchasi bilan yasalgan nomlar (Elohiya, Zafaroniya, Farmoniya) mulk, bog' yoki mahalla sifatida shakllangan joylarga xos bo'lib, shimolning morfologik belgilaridan biri hisoblanadi. Fors tilidagi -ak kichraytirish-erkalash qo'shimchali nomlar (Velenjak, shuningdek, janubdagi Hesorak حصارک) ham bu qatorni to'ldiradi. Shimoliy toponimlarning semantik doirasi ham o'ziga xos. Ularda tabiat, bog'dorchilik, mulkdorlik va saroy, masalan, Niyovaron saroy majmuasi kabi ma'nolar yetakchilik qiladi. Boshqacha aytganda, bu nomlar hududning tarixiy vazifasini dam olish makoni va yuqori tabaqa yashash joyi bo'lganini aks ettiradi.

G'arbiy va sharqiy hududlar toponimlari. G'arbiy va sharqiy hududlarning katta qismi XX asrda rejali ravishda qurilgan, shu sababli bu yerdagi toponimlar ko'proq «yaratilgan» nom xarakteriga ega. G'arbda Shahrak-e G'arb (شهرک غرب), ya'ni «G'arb shaharchasi», kabi nom yo'nalishni to'g'ridan-to'g'ri bildiradi va izofali konstruksiya asosida tuzilgan. Ekbatan (اکباتان) turar-joy majmuasi nomi esa Hamadonning (همدان) qadimiy nomi Ekbatana (هگمتانه) bilan bog'lanadi va qadimgi Eron tarixiga murojaatni ko'rsatadi. Bu holat zamonaviy rejalashtirilgan mavzelarda tarixiy xotiraga ishora qiluvchi nomlash tendensiyasidan dalolat beradi. Sharqda Tehronpars (تهرانپارس), g'arbda esa Tehronsar (تهرانسار) kabi nomlar uchraydi. Ularda shahar nomi boshqa komponent bilan birikib, yangi mavze nomini hosil qiladi. Bu model yangi turar-joy massivini shaharning o'zi bilan bog'lash tamoyilini ko'rsatadi va hududiy chegaradan qat'i nazar, bir necha tomonda uchraydi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Hodonimlar: siyosiy-ideologik va madaniy qatlam. Hodonimlar (ko'cha nomlari) eng keng tarqalgan toponimik qatlamdir. Pahlaviylar davridagi ba'zi nomlar 1979-yildan keyin o'zgartirilgan. Shohreza (شاهرضا) ko'chasi Inqilob (انقلاب), Pahlaviy (پهلوی) ko'chasi Valiasr (ولیعصر) nomini oldi, Shohyod (شهیاد) minorasi Ozodiy (آزادی) deb atala boshladi, Taxt-e Jamshid (تخت جمشید) ko'chasi esa Tolaqoniy (طالقانی) nomi bilan yuritiladigan bo'ldi [4]. Shuningdek, Jordan (جردن) ko'chasi keyinchalik Afriqo (آفریقا) nomi bilan atalgan. Shu bilan birga, Firdavsiy (فردوسی), Hofiz (حافظ), Sa'diy (سعدی), Mavloviy (مولوی) kabi mumtoz shoirlar va Mirdomod (میرداماد) kabi mutafakkirlar nomi berilgan ko'chalar madaniy xotira qatlamini tashkil etadi. Bunday nomlar ma'lum bir hududga emas, butun shahar bo'ylab tarqalgan bo'lib, mintaqaviy farqlardan ko'ra davr va mafkura omilini ko'proq ko'rsatadi.

Butun shahar uchun xos yana bir model — antroponim + -obod. Yusufobod (یوسفآباد), Amirobod (امیرآباد), Abbosobod (عباسآباد) kabi nomlar shaharning turli qismlarida uchraydi, Sa'odatobod (سعادتآباد) esa mavhum tushunchaga asoslangan nomdir. -obod formantining o'zbek toponimiyasida ham keng tarqalgani qiyosiy tadqiqotlar uchun asos yaratadi [10; 11]. Tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirildi.

XULOSA

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Tehron toponimlaridagi mintaqaviy farqlar tasodifiy emas, balki shaharning tarixiy rivojlanish yo'nalishini aks ettiradi. Tarixiy markaz nomlari an'anaviy shahar hayoti savdo, hunarmandchilik va mudofaa bilan bog'liq. Shimoliy nomlar tabiat va mulkchilik tushunchalari orqali ijtimoiy tabaqalanishni, g'arb va sharqdagi yangi nomlar esa shaharsozlik siyosati va tarixiy xotiraga murojaatni ifodalaydi [12]. Struktur jihatdan tub nomlar va oddiy birikmalar tarixiy yadroda ko'proq kuzatilsa, qo'shimchali va rejalashtirilgan nomlar yangi hududlarda ko'zga tashlanadi. Izofali konstruksiyalar esa turli hududlarda uchrab, fors toponimiyasining umumiy strukturaviy belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Tehron toponimik makoni bir xil emas, balki hududiy-tarixiy jihatdan tabaqalangan. Tarixiy markaz va janubda mahalla va darvoza nomlari, shimolda landshaft, mulk va shaxs nomiga asoslangan -iya hamda -ak shaklidagi nomlar, g'arb va sharqda esa rejali modelga tayangan nomlar yetakchilik qiladi. Hodonimlar esa siyosiy-ideologik o'zgarishlarga eng ta'sirchan qatlam sifatida butun shaharga xos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. — Toshkent : O'qituvchi, 1978.
2. Qorayev S. Toponimika. — Toshkent : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Маслова, В. А. Лингвокультурология : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В. А. Маслова. — Москва : Издательский центр «Академия», 2001. — 208 с.
4. Никонов, В. А. Введение в топонимику / В. А. Никонов. — Москва : Наука, 1965. — 180 с.
5. Подольская, Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Н. В. Подольская ; отв. ред. А. В. Суперанская. — Москва : Наука, 1988. — 192 с.
6. Суперанская, А. В. Общая теория имени собственного / А. В. Суперанская. — Москва : Наука, 1973. — 366 с.
7. Encyclopaedia Iranica (onlayn nashr) : «Tehran» maqolalari / Ed. E. Yarshater. — Columbia University / Encyclopaedia Iranica Foundation.
8. Madanipour A. Tehran: The Making of a Metropolis. — Chichester : John Wiley & Sons, 1998.
9. دهخدا، علیاکبر .لغتنامه / علیاکبر دهخدا. — تهران: انتشارات دانشگاه تهران، ۱۹۹۸.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

10. شهری، جعفر .تاریخ اجتماعی تهران در قرن سیزدهم / جعفر شهری. — تهران: مؤسسه خدمات فرهنگی رسا، ۱۹۹۰.
11. کریمان، حسین .تهران در گذشته و حال / حسین کریمان. — تهران: انجمن آثار ملی، ۱۹۷۶.
12. قدگساز، محمدرضا. وجه تسمیه شهرهای ایران / گردآورنده محمد رضا قدگساز. – تهران: انتشارات گل گشت، ۱۳۷۵ .